



O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIGI: IQTISODIY O'SISH, RAQOBATBARDOSHLIK VA MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI

Yoqubov Javohir Qanoatovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya uniuersiteti Xalqaro munsabatlar fakultetining 3-bosqich talabasi yoqubovjavohir515@gmail.com

Abstract: *Ushbu maqolada Xitoyning "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusining mazmuni va uning global iqtisodiy ahamiyati yoritiladi. O'zbekiston uchun bu tashabbus tashqi bozorga chiqish, investitsiyalarni jalb etish va tranzit salohiyatini oshirishda muhim imkoniyatlar yaratadi. Biroq, tashabbusning ayrim salbiy jihatlari – masalan, tashqi iqtisodiy qarzlarga bog'lanish xavfi va Xitoyga haddan tashqari iqtisodiy qaramlik ehtimoli ham mavjud.*

This article discusses the essence of China's 'One Belt, One Road' initiative and its global economic significance. For Uzbekistan, this initiative creates important opportunities for accessing foreign markets, attracting investments, and increasing transit potential. However, there are also some negative aspects of the initiative, such as the risk of dependence on external economic debts and the possibility of excessive economic reliance on China.

В этой статье обсуждается суть инициативы Китая «Один пояс, один путь» и ее глобальное экономическое значение. Для Узбекистана эта инициатива создает важные возможности для доступа к иностранным рынкам, привлечения инвестиций и увеличения транзитного потенциала. Однако есть и некоторые негативные аспекты инициативы, такие как риск зависимости от внешних экономических долгов и возможность чрезмерной экономической зависимости от Китая.

Kalit so'zlar: *MIZ, geografik yopiqlik, , Ipak yo'li iqtisodiy zanjiri, Dengiz ipak yo'li*

Asosiy qism:


Logistika va transport jihatdan ushbu loyiha nafaqat Osiyoda balki butun dunyo bo'yicha ham eng yirik iqtisodiy aylanmani amalga oshiradi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi — Osiyo, Yevropa va Afrikani savdo, transport va investitsiya yo'laklari orqali bog'lab, o'zaro savdo aylanmasi va integratsiyani chuqurlashtirishdir. Bu tashabbus ikki asosiy qismdan iboratdir.

Birinchisi, Ipak yo'li iqtisodiy zanjiri deb nomlangan strategiya 2013-yil sentabr oyida Si Szinpinning Qozog'istonga rasmiy tashrifi chog'ida qabul qilingan. Ikkinchisi esa, Dengiz ipak yo'li deb nomlangan strategiya 2013-yilning oktabrida Indoneziya parlamentidagi nutqida taklif qilingan.

Quruklikdagi yo'nalish — Xitoyni Markaziy Osiyo, Rossiya va Yevropa bilan bog'lovchi temir yo'l va avtomobil yo'llari, quvurlar, elektr energiyasi tarmoqlari va sanoat bog'larini o'z ichiga oladi.



Dengiz yo'li esa Xitoyning janubiy portlaridan boshlab Janubi-Sharqiy Osiyo, Hind okeani orqali Afrika va Yevropaga tutashadi. Har ikkala yo'nalish ham logistika samaradorligini oshirish, savdo xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish imkonini beradi¹.



O'zbekiston uchun Bir kamar bir yo'l loyihasi nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki o'zining geografik yopiqlik holatini yengib o'tish uchun qulay hamdir. Mamlakatimiz dengizga chiqishi uchun eng kamida 2 ta davlat chegrasini kesib o'tishi lozim bo'lgan dunyodagi ikki davlatning biridir. Shunday sharoitda Bir kamar bir yo'l doirasidagi transport yo'laklari O'zbekistonni global savdo tizimida asosiy ishtirokchi bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston quruqlik yo'lidan Turkmaniston va Eron orqali Yevropa bozorlariga, shuningdek, Kaspiy dengizi orqali Kavkaz va Turkiyaga chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari, "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temir yo'li loyihasi amalga oshgach, O'zbekistonning eng qisqa yo'l bilan bevosita Xitoyga bog'lanishiga zamin yaratiladi. Hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan Xitoy orqali savdo aloqalarini yo'lga qo'yish iqtisodiy jihatdan katta imkoniyatlar ochadi.

Shuningdek, Bir kamar bir yo'l doirasida amalga oshirilayotgan transport va energetika infratuzilma loyihalari, jumladan temir yo'l modernizatsiyasi, avtomobil yo'llarining rekonstruksiyasi va energetika tarmoqlarining kengaytirilishi O'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, Bir kamar bir yo'l loyihalari to'liq amalga oshirilgan taqdirda, O'zbekistonning savdo xarajatlari keskin kamayib, real daromadi 1,6 foizga oshishi mumkin.²

Umuman olganda, "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi O'zbekiston uchun geoiqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, tranzit salohiyatini kuchaytirish va ishlab

¹ Belt and Road Economics: Opportunities and Risks of Transport Corridors

² Open Knowledge Repository



chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish orqali mintaqaviy markazga aylanish yo'lida mustahkam poydevor yaratmoqda.

O'zbekistonning BRI dagi Ishtiroki va Amalga Oshirilayotgan Loyihalar

O'zbekiston BRI tashabbusini faol qo'llab-quvvatlab, milliy islohotlarni loyiha maqsadlariga moslashtirmoqda. Mamlakatning tranzit salohiyati oshib, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo bilan savdo aloqalari osonlashmoqda. So'nggi yillarda Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi savdo hajmi sezilarli darajada oshdi, bu ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlamoqda.

Masalan, Jizzaxdagi maxsus iqtisodiy zonada (MIZ) tashkil etilgan to'qimachilik majmualari Xitoyning "Zhejiang Dunhuang" kabi kompaniyalari tomonidan moliyalashtirildi. Bu loyihalar orqali minglab ish o'rinlari yaratilgan va mahalliy eksport imkoniyatlari kengaygan. Xuddi shunday, CNPC (China National Petroleum Corporation) tomonidan amalga oshirilayotgan tabiiy gaz quvurlari loyihalari energetika infratuzilmasini yangilashga xizmat qilmoqda.

Transport va logistika infratuzilmasiga kiritilayotgan sarmoyalar natijasida mamlakatning real daromadlari ham oshmoqda. Jahon bankining kelajak bir necha yil uchun prognozlariga ko'ra, BRI doirasida amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari O'zbekiston YalMining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va real daromadni o'rtacha 1,6 foizga oshiradi. Bu o'sish ayniqsa mehnatga asoslangan tarmoqlarda yaqqol seziladi.

O'zbekiston bandlikka ko'maklashish agentligi tomonidan berilgan malumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va agribiznes tarmoqlarida har yili 500 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi mumkin³. Ushbu tarmoqlarda yaratilayotgan ish o'rinlari nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotining transformatsiyasi uchun "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusidagi investitsion oqimlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, Jahon banki, UNCTAD va sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2023-yillar oralig'ida O'zbekistonga kirib kelgan umumiy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmi 45 milliard AQSh dollariga yaqinlashgan, shundan Xitoy ulushi qariyb 8 milliard dollarni tashkil etadi.

O'zbekistonning meva-sabzavot eksporti 2022-yilda 1,2 milliard AQSh dollariga yetdi, bu esa tashqi savdoning 7 foiziga teng. Xitoy esa O'zbekistonning eng yirik eksport bozorlaridan biri bo'lib, yillik 150 million dollarlik meva-sabzavot mahsulotlari eksporti amalga oshiriladi.

2023-yilda Xitoy kompaniyalari bilan Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida 300 gektardan ortiq zamonaviy issiqxonalar qurildi. Loyiha qiymati 100 million dollardan ortiqni tashkil etdi va minglab ish o'rinlari yaratildi.

Transport-logistika sohasida O'zbekiston uchun eng dolzarb masala — ichki va mintaqaviy logistika tarmoqlarining samaradorligini oshirishdir.. O'zbekiston

³ strategy.uz



Iqtisodiy o'sish nazariyalariga ko'ra, infratuzilma sarmoyalari mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Infratuzilma rivojlanishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, bozorlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilaydi va iqtisodiy faollikni oshiradi. Bir kamar bir yol loyihasi orqali amalga ta'mirlanayotgan va yangittan qurilayotgan temir yo'llar, avtomobil yo'llari, portlar va energetika inshootlari kabi loyihalar ishtirokchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga sarmoya kiritayotgan Xitoy tabiiy resurslarga boy hududlarda yangi avtomobil yo'llari, temir yo'llar, shuningdek, gaz va neft quvurlari qurilishi hisobiga barqaror iqtisodiyotni amalga oshirmoqda.

BRI doirasida amalga oshirilayotgan eng yirik loyihalardan biri bu — "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temiryo'l loyihasidir. Bu loyiha orqali Xitoyning g'arbiy hududlari Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropaga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Temiryo'lning umumiy uzunligi 523 km bo'lib, undan 213 km Qirg'iziston hududidan va 213 km O'zbekiston hududidan o'tadi. O'zbekiston bu loyihaga 1 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb qilgan va loyihaning 2026-yilga qadar to'liq ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Xitoy kompaniyalari Toshkent-Andijon avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish, Angren-Pop temiryo'l tunnelini modernizatsiya qilish kabi loyihalarda ham faol ishtirok etmoqda. Bu loyihalar logistika samaradorligini oshirish, ichki bozorlarni birlashtirish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya sohasida ham Xitoy investorlari faol. 2023-yilda "China Gezhouba Group" kompaniyasi tomonidan Buxoro viloyatida 500 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlandi. Bu loyiha O'zbekistonning yashil energiyaga o'tish strategiyasiga mos keladi va 2030-yilgacha umumiy energiya iste'molidagi qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 25% ga yetkazish maqsadiga xizmat qiladi. Bu loyiha nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy jihatdan ham juda muhim. Hozirgi global muomommolardan biri bolgan "global qarming" va atrof muhitni ifloslanishini oldidni olish sohalarida juda muhim.

O'zbekiston uchun "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi (BRI) global iqtisodiy tizimga integratsiyalashish, geografik cheklovlardan chiqish va xalqaro savdo tarmoqlariga kirishish uchun noyob imkoniyat yaratmoqda.

Ushbu tashabbus orqali O'zbekiston o'zining strategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va ishchi kuchi salohiyatidan samarali foydalanib, mintaqaviy tranzit markaziga aylanishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, BRI doirasida olib borilayotgan infratuzilmaviy loyihalar, ayniqsa temir yo'l yo'nalishlari va logistika markazlari, tashqi savdo xarajatlarini kamaytirish, eksport hajmini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o'ynaydi.

Xususan, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, energetika va logistika sohalarida O'zbekistonning BRI doirasidagi asosiy rivojlanish yo'nalishlariga aylanishi mumkin.



Endi tangananing ikkinchi tomoni haqida gaplashsak. Hozirgi kunda ko'plab iqtisodchi va siyosatchilarda bir xavotir bor. Xitoy ehtomoliy qarz tuzoqlari sohibi yoki imkoniyati yuqori hamkor.

Masalan Volker stanzel, Germaniyaning Xitoydagi sobiq elchisining fikricha, Yevropada BRI loyihasidan umidsizlik mavjud. Uning ta'kidlashicha, ko'plab hamkor davlatlar uchun loyiha asl maqsadini tushunish qiyinlashgan va bu Xitoyning o'zi uchun ham qimmatga tushmoqda. Va Xitoy hozirgi kunda ko'plab davlatlarga imtiyozli kreditlar ajratmoqda va bu qarzlarni ko'pgina iqtisodiy sust rivojlangan mamlakatlar uchun kelajakda ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shu qatorda, Ko'plab iqtisodchilar BRI doirasidagi loyihalar tufayli ishtirokchi davlatlarning tashqi qarzi oshib ketishi mumkinligidan xavotir bildirmoqda. Xususan, Xitoy tomonidan 2016-2021 yillarda ajratilgan kreditlarning qariyb 80 foizi o'rta daromadli mamlakatlarga yo'naltirilgan bo'lib, bu davlatlarning qarz yukini oshirgan. Masalan, Argentina 111,8 milliard dollar, Pokiston 48,5 milliard dollar va Misr 15,6 milliard dollar miqdorida mablag' olgan. Ushbu mamlakatlar iqtisodiy nisbatan rivojlangan ammo markaziy Osiyo davrlarining holi nima kechadi.⁴ Yorqin misol tariqasida Qirg'izistonni keltirishimiz mumkin.

Qirg'izistonning davlat qarzlari yillar davomida qarzlarning foizi hisobiga juda katta mablag'ni tashkil etgan ammo mamlakat iqtisodiyoti ushnu summani to'lashga qurbi yetmagani bois bu qarzlarni o'z yerlari evaziga to'lagan.⁵ Shuni aytib o'tish joizki, Xitoyning Bir kamar bir yo'l dasturi doirasida O'zbekistonga katta miqdorda kreditlar ajratilmoqda.

Bu mablag'lar energetika, transport va sanoat infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bo'lsa-da, agar bu loyihalar yetarlicha samarali bo'lmasa, davlatning tashqi qarz yukini oshirishi mumkin. O'zbekiston mustaqillik yillarida birinchi marta 2025 yil holatiga kelib davlat qarzi yuqori darajaga yetdi va bu jarayon davom etmoqda. Agar Xitoyning Bir kamar bir yo'l dasturi doirasidagi investitsiyalar noto'g'ri boshqarilsa, mamlakat Xitoyga iqtisodiy qaramlik holatiga tushib qolishi mumkin. Shri-Lanka tajribasi bu borada yaqqol misol bo'lib, mamlakat Xitoydan olingan kreditlarni qaytara olmagan sababli Hambantota portini 99 yilga Xitoy kompaniyasiga ijaraga berishga majbur bo'ldi.

Agar O'zbekiston ham qarz strategiyasini to'g'ri belgilamasa, kelajakda shunga o'xshash moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. ⁶Yana bir salbiy tarafi Xitoyning yirik investitsiyalari mahalliy sanoatga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir tomondan, infratuzilmaga sarmoya kiritilishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, boshqa tomondan esa Xitoy mahsulotlarining bozorga arzon narxlarda kirib kelishi O'zbekiston ishlab chiqaruvchilari uchun kuchli raqobat muhitini yaratadi.

⁴ New in-depth profiles on China's grants and loans to 20 countries

⁶ China's Lending to Selected Countries (2000-2021) - Voronoi



Masalan, yengil sanoat va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida Xitoy mahsulotlari mahalliy korxonalarga bosim o'tkazishi va ularning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, ba'zi korxonalar yopilishi va natijada ishsizlik darajasining oshishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Xitoyning iqtisodiy ta'siri ortib borayotgani O'zbekistonning xalqaro siyosiy munosabatlariga ham ta'sir o'tkazishi mumkin. Xitoy Bir makon bir yo'l dasturi orqali nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ta'sirini ham kuchaytirayotgan davlat hisoblanadi. O'zbekiston Bir makon bir yo'l dasturi doirasida haddan tashqari Xitoy bilan bog'lanib qolsa, bu mamlakatning boshqa muhim hamkorlari, jumladan, Yevropa Ittifoqi va AQSh bilan bo'lgan munosabatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Shu sababli, O'zbekistonning tashqi siyosati muvozanatli bo'lishi va birgina davlatga haddan tashqari qaram bo'lib qolish xavfidan qochishi zarur. Xitoy investitsiyalari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha ba'zan Xitoydan ishchi kuchi olib kelinishi kuzatilmoqda.

Agar O'zbekistonda mahalliy mutaxassislar yetarlicha jalb qilinmasa yoki arzon ishchi kuchi sifatida asosan Xitoy fuqarolari ishlatilsa, bu mahalliy mehnat bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada, ish o'rinlarining kamayishi, maoshlarning pastligi va ishsizlik darajasining ortishi kabilar kuzatilishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, mahalliy ishchilarning mehnat sharoitlari va huquqlari yetarlicha himoyalangan bo'lsa, ular xalqaro investitsiya loyihalarida teng sharoitda ishtirok eta olmasligi mumkin.

Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi O'zbekiston uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, jiddiy xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Qarzдорlikning oshishi, mahalliy sanoatning raqobatbardoshligini yo'qotishi, ekologik muammolar, geosiyosiy qaramlik xavfi, mehnat bozoridagi salbiy o'zgarishlar va madaniy ta'sir bu jarayonga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston ushbu investitsiyalarni jalb qilishda uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqishi, milliy manfaatlarni himoya qilishi va shaffoflikni ta'minlashi lozim.

Faqat shu yo'l bilangina mamlakat BRI doirasidagi hamkorlikdan eng optimal natijalarni olishi va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qolishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozim: Xitoyning "Bir Kamar, Bir Yo'l" tashabbusi O'zbekiston uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar taqdim etadi: infratuzilma rivoji, savdo kengayishi, sanoat modernizatsiyasi va tranzit markaziga aylanish. Biroq, salbiy jihatlar – qarz, raqobat, ekologiya va qaramlik xavflari – ehtiyotkorlikni talab qiladi. O'zbekiston milliy manfaatlarni himoya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ekologik me'yorlarga rioya qilish va shaffof strategiyalarni ishlab chiqishi lozim.

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish, bojxona tizimini soddalashtirish va maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish orqali imkoniyatlardan samarali foydalanish mumkin.

Faqat muvozanatli siyosat bilan BRI O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Bank, 2019. Open Knowledge Repository. The World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/>
2. World Bank, 2019. Belt and Road Economics: Opportunities and Risks of Transport Corridors. Washington, DC: The World Bank. <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/31878>
3. World Trade Organization (WTO), 2023. Uzbekistan injects renewed momentum into WTO accession process. [worldtradesScanner.com/Uzbekistan injects renewed momentum into WTO accession process.htm](https://www.wto.org/press/2023/02/23-uzbekistan-injects-renewed-momentum-into-wto-accession-process.htm)
4. World Bank (2024) Uzbekistan's path to WTO accession: navigating challenges and opportunities. Washington, DC: World Bank Documents. Public Documents | The World Bank
5. World Trade Organization (2024) Uzbekistan advances WTO accession negotiations: reaffirms target for 2026. Geneva: WTO WTO | 2024 News items - The 2024 Annual Meetings of the World Bank Group and the International Monetary Fund — Uzbekistan's path to WTO accession: Navigating reforms and global integration
6. World Bank (2025) Uzbekistan economic update: advancing global integration and market transition. Washington, DC: World Bank Group World Bank Supports Uzbekistan in Implementing Policy Reforms to Spur Job Creation, Private Sector Growth, and International Trade